INTERNATIONAL INNOVATION AND RESEARCHES
International scientific journal Volume: 2 Issue: 3

O‘ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING LIKVIDLIK DARAJASINI TAHLIL QILISH: MAVJUD HOLAT VA ISTIQBOLLAR

Zokirova Diyoraxon Iqboljon qizi
O’zbekiston Respublikasi Bank-Moliya akademiyasi magistranti
E-mail: diyorazokirova1111@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekistondagi tijorat banklarining likvidlik darajasi, uning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar va ularni tahlil qilish Kmexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada bank tizimining likvidlikni boshqarishdagi amaliy yondashuvlari, markaziy bank siyosatining o‘rni va xalqaro standartlar bilan solishtirma tahlil keltirilgan. Shuningdek, mavjud statistik ma’lumotlar asosida bir nechta tijorat banklarining likvidlik ko‘rsatkichlari tahlil qilinib, banklar tomonidan kelajakda barqaror likvidlikni ta’minlash uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Mazkur maqola iqtisodiy islohotlar davrida bank tizimining moliyaviy barqarorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *tijorat banklari, likvidlik, moliyaviy barqarorlik, likvidlik ko‘rsatkichlari, markaziy bank, pul-kredit siyosati, bank risklari, likvidlikni boshqarish, statistik tahlil, bank tizimi, O‘zbekiston bank sektori.*

Аннотация. *В статье рассматривается уровень ликвидности коммерческих банков Узбекистана, факторы, влияющие на его формирование, и механизмы их анализа. В статье представлен сравнительный анализ практических подходов к управлению ликвидностью в банковской системе, роли политики центрального банка и международных стандартов. Также на основе имеющихся статистических данных были проанализированы показатели ликвидности ряда коммерческих банков, а также разработаны предложения и рекомендации банкам по обеспечению стабильной ликвидности в будущем. Статья имеет научное и практическое значение, направленное на повышение финансовой устойчивости банковской системы в период экономических реформ.*

Ключевые слова: *коммерческие банки, ликвидность, финансовая устойчивость, показатели ликвидности, центральный банк, денежно-кредитная политика, банковские риски, управление ликвидностью, статистический анализ, банковская система, банковский сектор Узбекистана.*

Annotation. *This article examines the liquidity level of commercial banks in Uzbekistan, the factors influencing its formation and the mechanisms for their analysis. The article presents a comparative analysis of practical approaches to liquidity management of the banking system, the role of central bank policy and international standards. Also, based on available statistical data, the liquidity indicators of several commercial banks were analyzed, and proposals and recommendations were developed by banks to ensure stable liquidity in the future. This article is of scientific and practical importance aimed at increasing the financial stability of the banking system during the period of economic reforms.*

Key words: *commercial banks, liquidity, financial stability, liquidity indicators, central bank, monetary policy, bank risks, liquidity management, statistical analysis, banking system, banking sector of Uzbekistan.*

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank tizimining barqaror faoliyat yuritishi mamlakat moliya sektorining asosiy tayanchi hisoblanadi. Ayniqsa, tijorat banklarining likvidlik darajasi ularning o‘z majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajarish qobiliyatini belgilovchi muhim omil bo‘lib, bu bank ishonchliligi va mijozlar ishonchini ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bank likvidligi darajasining yetarli bo‘lishi nafaqat bankning o‘z faoliyati uchun, balki butun moliyaviy tizimning barqarorligi uchun ham zaruriy shart hisoblanadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan moliyaviy islohotlar, bank tizimini liberallashtirish va raqobat muhitini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar tijorat banklari oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Xususan, likvidlikni boshqarish, likvidlik risklarini aniqlash va ularni minimallashtirish bo‘yicha zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash dolzarb masalaga aylanmoqda.

Mazkur maqolada O‘zbekiston bank tizimining hozirgi holati kontekstida tijorat banklarining likvidlik darajasini aniqlovchi asosiy ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi, mavjud muammolar va ularning kelib chiqish sabablari o‘rganiladi. Shuningdek, istiqbolda likvidlikni ta’minlashning samarali mexanizmlari va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratiladi. Maqolaning ilmiy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, u bank faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi tahliliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklari likvidligini ta’minlash va boshqarish masalasi bugungi kunda xalqaro va milliy miqyosda dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Mavzu yuzasidan ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, ularning nazariy qarashlari ushbu maqolada tahlil qilingan.

Xususan, Xalqaro hisob-kitoblar banki (BIS) tomonidan ishlab chiqilgan Basel III talablari banklarning likvidlik risklarini kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Basel III doirasida joriy etilgan Likvidlikni qoplash koeffitsienti (Liquidity Coverage Ratio – LCR) va Net Stable Funding Ratio (NSFR) ko‘rsatkichlari tijorat banklari uchun likvidlikni saqlashda mezon sifatida qaraladi.

Iqtisodchi olimlardan Frederik S. Mishkin o‘zining “The Economics of Money, Banking, and Financial Markets” asarida likvidlikni banklarning qisqa muddatli majburiyatlarini bajarish qobiliyati sifatida ta’riflab, uning pasayishi bank tizimidagi noaniqliklarni kuchaytirishini ta’kidlaydi. Shuningdek, u markaziy bankning likvidlik ta’minotidagi o‘rnini muhim strategik vosita sifatida ko‘rsatadi.

Mahalliy iqtisodchilar – S. Muxitdinov, A. Abdurahmonov, I. To‘xtasimov va boshqalar O‘zbekiston bank tizimidagi likvidlik muammolari, ularning kelib chiqish sabablari va boshqaruv mexanizmlarini o‘z tadqiqotlarida ko‘rib chiqishgan. Jumladan, S. Muxitdinov tijorat banklarining likvidlik holatini tahlil qilishda LCR va joriy likvidlik koeffitsientlaridan foydalanish zarurligini ta’kidlaydi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan e’lon qilingan yillik hisobotlar va rasmiy statistikalar mamlakat tijorat banklarining likvidlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi. 2022–2024 yillardagi ma’lumotlarga ko‘ra, banklar o‘rtasida likvidlik darajasida sezilarli tafovutlar kuzatilmoqda, bu esa boshqaruvdagi yondashuvlar farqliligini aks ettiradi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar va amaliy ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, likvidlikni samarali boshqarish tijorat banklari moliyaviy barqarorligining asosi bo‘lib, bu borada xalqaro me’zonlar va milliy sharoitlar uyg‘unlashuvi muhim ahamiyatga ega.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarining likvidlik darajasi moliyaviy barqarorlik va ishonchlilikning muhim mezoni hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2020–2023 yillar mobaynida likvidlikni ta’minlash, likvidlik risklarini boshqarish va xalqaro standartlarga moslashish yo‘lida muhim islohotlar o‘tkazdi. Ayniqsa, Basel III talablari asosida LCR (Liquidity Coverage Ratio) va NSFR (Net Stable Funding Ratio) kabi indikatorlarning banklar faoliyatida amaliyotga joriy qilinayotgani diqqatga sazovordir.

Quyidagi 1-jadvalda 2021–2023 yillar oralig‘ida ayrim yirik banklarning likvidlik darajasi ko‘rsatkichlari taqqoslab berilgan[1].

Bank nomi	2021-yil LCR (%)	2022-yil LCR (%)	2023-yil LCR (%)	NSFR (2023, %)
Xalq banki	122.6	133.9	137.5	109.3
Ipoteka Bank	126.3	138.0	150.3	115.8
Agrobank	110.4	121.2	142.1	112.5
Asaka Bank	118.9	125.7	139.8	108.6
Orient Finans Bank	14502	160.7	173.9	122.7

1-jadval. O‘zbekiston tijorat banklarining likvidlik ko‘rsatkichlari: holat va dinamikasi

[1] O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisobotlari (2021–2023).

Jadval ma’lumotlarini tahlil qiladigan bo’lsak, Xalq bankida LCR ko‘rsatkichi 2021-yildan 2023-yilgacha 14.9%ga o‘sdi. Bu o‘sish, ehtimol, bankning davlat loyihalarida faol ishtirok etishi, davlat kafolati ostida depozitlarni jalb qilgani, shuningdek, aktivlar strukturasi isloh qilinayotgani bilan izohlanadi.

Ipoteka bank esa eng sezilarli o‘sishga erishdi: 2021-yilda 126.3% bo‘lgan LCR, 2023-yilda 150.3%gacha yetdi. Bu bankda uy-joy kreditlari bo‘yicha davlat dasturlarini yuritish, barqaror tushum manbalariga ega bo‘lish, likvid aktivlarni strategik boshqarishning yaxshilanishi bilan bog‘liq.

Agrobankdagi o‘zgarishlar (2021 yildagi 110.4%dan 2023 yilda 142.1%gacha) asosiy sektor – qishloq xo‘jaligi – seskanuvchan bo‘lishiga qaramay, bank moliyaviy islohotlar va Markaziy bank kreditlari hisobiga o‘z LCRini sezilarli oshirishga muvaffaq bo‘ldi.

Orient Finans Bankning o‘sishi eng dinamik – 3 yilda 28.7%lik ko‘rsatkichga ega bo‘lgan. Bu xususiy bankning agressiv investitsiya siyosati, onlayn servislar orqali mijozlar bazasini kengaytirishi va yuqori likvid obligatsiyalarga sarmoya kiritishi bilan bog‘liq.

NSFR (Net Stable Funding Ratio) ko‘rsatkichi bankning uzoq muddatli barqaror moliyalashtirish manbalariga ega yoki yo‘qligini ko‘rsatadi. 2023-yil ko‘rsatkichlari shuni ko‘rsatadiki:

Orient Finans Bankning NSFR ko‘rsatkichi eng yuqori – 122.7%. Bu bank uzoq muddatli depozitlar va kapitallarni jalb qilishga e’tibor qaratganini bildiradi. Shuningdek, u balansidagi aktivlarni uzoq muddatli moliyalashtirish orqali risklarni minimallashtirgan.

Ipoteka bank (115.8%) va Agrobank (112.5%) ham bu borada yetarlicha barqaror hisoblanadi. Ipoteka bankda bu uzoq muddatli ipoteka kreditlarining moliyalashtirish manbalari bilan uyg‘unligidan dalolat beradi.

Xalq banki va Asaka bankda NSFR nisbatan pastroq (109.3% va 108.6%), bu esa ba’zi majburiyatlar qisqa muddatli manbalardan qoplanayotganini bildiradi. Shu sababli, bu banklarda uzoq muddatli moliyaviy strategiyalarni yana-da takomillashtirish talab etiladi.

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, banklarning likvidlik darajasida yildan-yilga barqaror o‘sish kuzatilmoqda. Bu bir tomondan, tartibga soluvchi organ talablarining kuchaytirilganini, ikkinchi tomondan esa, banklarning o‘z faoliyatida risklarga nisbatan sezgirligi ortganini anglatadi, banklar kredit portfelini diversifikatsiya qilish, aktiv-passivlarni muvozanatlashtirish, hamda stress-test va real vaqtli monitoring tizimlarini keng joriy qilish orqali likvidlik darajasini barqarorlashtirishi lozim.

Tahlil jarayonlarida tijorat banklarining likvidligini ta’minlovchi omillarga to’xtalib o’tamiz, Likvidlik darajasiga ta’sir etuvchi omillar quyidagicha guruhlanadi:

A) Ichki omillar:

Depozit portfeli sifati – qisqa muddatli depozitlar ulushi yuqori bo‘lsa, likvidlik xavfi ham ortadi.

Aktiv va passivlarning muvofiqligi – kredit portfeli tarkibining uzoq muddatli bo‘lishi likvidlik bosimini oshiradi.

Likvid buferlar mavjudligi – naqd pul va boshqa tez realizatsiya qilinadigan aktivlar likvidlikni ushlab turishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

B) Tashqi omillar:

Markaziy bank siyosati – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qo‘llanilayotgan REPO operatsiyalari, foiz stavkalari siyosati, majburiy rezerv stavkalari orqali likvidlik regulyatsiyasi olib boriladi.

Xalqaro moliyaviy holat – chet el investitsiyalari va tashqi qarzlar likvidlikka ta’sir ko‘rsatadi. 2022-yilda O‘zbekistonga kiritilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi $2,8 mlrdni tashkil qilgan bo‘lib, bu banklarning aktivlar strukturasiga ham ta’sir ko‘rsatgan.

Amaliy misol sifatida “Orient Finans Bank” tajribasini ko’rishimiz mumkin. “Orient Finans Bank” 2022-yilning ikkinchi yarmida o‘zining joriy likvidlik darajasini oshirish maqsadida bir nechta strategik chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Xususan:

Naqd pullarning 20% qismini yuqori likvid obligatsiyalarga yo‘naltirdi;

Mijoz depozitlarining 40% qismini 1 yildan ortiq muddatga qayta tuzdi;

Bosh ofisda likvidlik monitoring markazi tashkil etdi, bu yerda real vaqt rejimida LCR holati nazorat qilinadi. Natijada, bankning LCR ko‘rsatkichi 2021-yilda 145,2% bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 173,9%ga yetdi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston tijorat banklari umumiy holda yetarli likvidlik darajasiga ega, ammo ayrim banklarda bu resurslar notekis taqsimlangan. Shu sababli, banklar o‘z likvidlik siyosatlarini individual yondashuv asosida shakllantirishi, aktiv va passivlarning muvozanatini saqlashi, raqamli bank xizmatlarining kutilmagan oqimlariga tayyor turishi lozim. Shuningdek, Markaziy bank tomonidan likvidlik monitoringini yanada chuqurlashtirish va joriy xavf-xatarlarni oldindan aniqlash tizimini joriy etish orqali tizim barqarorligi mustahkamlanishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi moliya tizimining barqaror rivojlanishini ta’minlashda tijorat banklarining likvidlik darajasini samarali

boshqarish muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘rganilgan statistik ma’lumotlar va amaliy holatlar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, so‘nggi yillarda mamlakat tijorat banklarining LCR (Likvidlikni qoplash koeffitsienti) va NSFR (barqaror moliyalashtirish koeffitsienti) kabi asosiy ko‘rsatkichlari xalqaro standartlarga yaqinlashmoqda. Bu esa banklarning qisqa va uzoq muddatli majburiyatlarini qoplash salohiyatining oshayotganidan dalolat beradi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki:

Davlat banklarining likvidlik ko‘rsatkichlari yetarlicha darajada bo‘lsa-da, uzoq muddatli moliyaviy manbalar hajmi ayrim hollarda past bo‘lib qolmoqda. Bu holat, xususan, NSFR ko‘rsatkichlarida yaqqol aks etmoqda.

Xususiy sektor vakillari – Orient Finans kabi banklar esa ilg‘or texnologiyalar, mijozlar bilan interaktiv aloqalar va strategik kapital jalb qilish orqali yuqori likvidlik buferiga ega bo‘lishga erishmoqda.

Tijorat banklarining ko‘pchiligida likvidlikni ta’minlashda davlat dasturlarining o‘rni muhim bo‘lib, bu barqaror kredit portfelini shakllantirish imkonini beradi. Biroq, ushbu portfelning sektoral kontsentratsiyasi ayrim banklarda xatar manbai bo‘lib qolmoqda.

Shularni inobatga olgan holda, quyidagi ilmiy asoslangan takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Likvidlikni samarali boshqarish tizimini kuchaytirish

Banklar o‘zlarining LCR va NSFR ko‘rsatkichlarini real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini beruvchi raqamli stress-test tizimlarini joriy etishlari lozim.

Aktivlar va passivlarning muddat strukturasini muvofiqlashtirish orqali qisqa muddatli moliyaviy risklarni kamaytirish choralari ko‘rilishi zarur.

2. Uzoq muddatli moliyalashtirish manbalarini kengaytirish

Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda uzoq muddatli likvid manbalarni jalb qilish, xususan, obligatsiyalar chiqarish amaliyotini rivojlantirish kerak.

Ichki bozorda uzoq muddatli depozitlar ulushini oshirish maqsadida stimulyatsiya mexanizmlari (yuqori foiz stavkalari, sug‘urtalangan depozitlar tizimi)ni kengaytirish muhimdir.

3. Kredit portfelining diversifikatsiyasini ta'minlash

Sektoral risklarni kamaytirish maqsadida banklar o‘z kredit portfellarini turli iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha tarqatilgan (diversifikatsiyalangan) shaklda yuritishlari lozim.

Ayniqsa, kichik biznes va eksport faoliyatini moliyalashtirish orqali valyuta tushumlarini ko‘paytirish, bu orqali likvidlik riskini kamaytirish mumkin.

4. Regulyator siyosatini takomillashtirish

Markaziy bank tomonidan bank likvidligini baholovchi yangi indikatorlar (masalan, Intraday liquidity monitoring tools)ni tatbiq etish va doimiy ravishda monitoring qilish tizimi joriy qilinishi zarur.

Tijorat banklarining likvidlik pozitsiyasiga oid ochiq ma’lumotlarni e’lon qilish orqali moliyaviy barqarorlik va oshkoralikni ta’minlash mumkin.

Umuman olganda, tijorat banklari likvidligini ta'minlash — faqatgina moliyaviy menejment vazifasi emas, balki davlatning umumiy iqtisodiy strategiyasi doirasidagi muhim yo‘nalishlardan biridir. Shu bois, yuqorida keltirilgan takliflarni izchil amalga oshirish orqali O‘zbekiston bank tizimi barqarorligini mustahkamlash, xalqaro moliyaviy tizimga integratsiyani chuqurlashtirish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Basel Committee on Banking Supervision (2013) Basel III: The Liquidity Coverage Ratio and liquidity risk monitoring tools. Bank for International Settlements. Available at: https://www.bis.org/publ/bcbs238.pdf (Accessed: 15 April 2025).
2. Basel Committee on Banking Supervision (2014) Basel III: the net stable funding ratio. Bank for International Settlements. Available at: https://www.bis.org/publ/bcbs295.pdf (Accessed: 15 April 2025).
3. Central Bank of Uzbekistan (2023) Bank tizimi holati va rivojlanish tendensiyalari. Available at: https://cbu.uz (Accessed: 16 April 2025).
4. Karimov, A.N. (2022) ‘O‘zbekistonda tijorat banklari likvidligini ta’minlashning amaliy jihatlari’, Iqtisodiyot va moliya, 2(4), pp. 45–52.
5. Mamatqulov, M.K. (2021) Bank menejmenti: Nazariya va amaliyot. Toshkent: Iqtisodiyot va huquq nashriyoti.
6. International Monetary Fund (IMF) (2022) Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program. Available at: https://www.imf.org/en/Publications (Accessed: 17 April 2025).
7. Umarova, D.X. (2023) ‘Tijorat banklarida likvidlik risklarini boshqarish strategiyalari’, Moliyaviy tahlil va bank ishi jurnali, 3(1), pp. 29–38.
8. World Bank (2021) Enhancing Bank Liquidity Management in Emerging Markets. Washington, DC: World Bank Group. Available at: https://www.worldbank.org (Accessed: 17 April 2025).
9. Yuldashev, B.B. (2020) ‘O‘zbekiston bank tizimida likvidlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish’, Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 1(3), pp. 11–19.
10. Ходжиева, Г. Н. (2023). Организация учебного процесса в системе довузовской подготовки по иностранному языку в дистанционной форме. Экономика и социум, (4-1 (107)), 990-993.
11. Khodjaev, S.R. and Tadjibaeva, M.M. (2022) ‘Banklar likvidligini tartibga solishda regulyator roli’, Ilmiy amaliy moliya jurnali, 4(2), pp. 55–63.

12. Fitch Ratings (2023) Uzbekistan Banking Sector Outlook 2024. Available at: https://www.fitchratings.com (Accessed: 18 April 2025).
13. The Economist Intelligence Unit (2023) Uzbekistan: Financial and Banking Overview. Available at: https://www.eiu.com (Accessed: 18 April 2025).
14. Ходжиева, Г. (2024). Анализ и сравнения языковых особенностей гендерной коммуникации на примере итальянской и узбекской литературы. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 2(4/S), 232-235.
15. Saodat, I., & Ma'suda, E. (2023). Bilingvizm turlari va ikkinchi til leksik bazasi. In international scientific conferences with higher educational institutions (Vol. 1, No. 14.04, pp. 185-188).
16. Rafikovich, H. M. (2022). The classification of teaching methods in higher education. Journal of Positive School Psychology, 1582-1587.
17. Джалилова, С. М. (2024, November). Цветовые образы в испанском языке: этнолингвистические аспекты. In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 150-151).
18. Bakhronova, D., Alavutdinova, N., Israilova, S., & Vilchis, V. V. Color Lexemes in Context: Cognitive and Cultural Explorations.
19. Shamahmudova, A., & Djalilova, S. (2024). Retracted: Discourse strategies of ecology and environment. In BIO Web of Conferences (Vol. 84, p. 04025). EDP Sciences.
20. Sharipov, K., Abdullaeva, S., Khalilov, S., & Xadjibayev, A. (2025). Analysis of the effectiveness of hydrocarbon vapor condensation. International Journal of Artificial Intelligence, 1(2), 1287-1291.

ACADEMIC BOOK